

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori

X.B. Yunusov

2024 yil "02" 08

**ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI
FANING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 500000-Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi: 520000- Atrof-muhit
**Ta’lim
mutaxassisligi:** 70520202-Ekologiya

Samarqand - 2024

Fan/modul kodi ITM1104		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 6	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	90		90	180
2.	<div>I. Fanning mazmuni</div> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - magistrantlarga tadqiqot olib borish malakasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilimlar berish, dolzarb ilmiy muammolarni mustaqil tahlil qilish, zamonaviy tadqiqot usullarini o'rganish, izlanish samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini rasmiylashtirish va joriy qilish masalalarini ko'rib chiqish, tadqiqot olib borish texnologiyasi, yangi bilimga erishish yo'llari va usullari, empirik va nazariy tadqiqot metodologiyasi, olingan natijalardan nazariy va amaliy yo'nalishlarda foydalanish haqida bilim berish, tadqiqotchilik ko'nikmasini takomillashtirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – magistrant va yosh olimlarda nazariy va tajribaviy tadqiqot o'tkazish malakasini shakllantirish, ilmiy tadqiqotni tashkil qilish, uni amalga oshirish rejalari va bosqichlarini ishlab chiqishni o'rganish, ilmiy ijod qilish yo'llari va mexanizmlari haqida zamonaviy tasavvurlarni hosil qilish, ilmiy tadqiqot olib borish sharti bo'lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirish, fan va texnologiyada paydo bo'layotgan innovatsion g'oyalar va loyihalarni bilib borish va o'zlashtirish uquvini shakllantirish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.</p> <div>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</div> <div>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</div> <div>1-mavzu. "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" faniga kirish.</div> <p>Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanining predmeti. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanining maqsadi va vazifalari. Fan tushunchasi. Fanning tashkiliy strukturalari.</p> <div>2-mavzu. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari</div> <p>Ilmiy tadqiqotni tashkil qilish, uni amalga oshirish rejalari va bosqichlarini ishlab chiqishni o'rganish. Fan va texnologiyada paydo bo'layotgan innovatsion g'oyalar va</p>				

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining 70520202 – Ekologiya mutaxassisligi magistrleri uchun "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanidan ishlab chiqilgan fanning o'quv dasturiga

TAQRIZ

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartiga ko'ra yuqorida ko'rsatilgan mutaxassisliklar magistrleri uchun o'qitiladigan "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanining o'quv dasturi, nazariy va tajribaviy tadqiqot o'tkazish malakasini shakllantirish, ilmiy tadqiqotni tashkil qilish, uni amalga oshirish rejaları va bosqichlarini ishlab chiqishni o'rganish, ilmiy ijod qilish yo'llari va mexanizmlari haqida zamonaviy tasavvurlarni hosil qilish, ilmiy tadqiqot olib borish sharti bo'lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirish, fan va texnologiyada paydo bo'layotgan innovatsion g'oyalar va loyihalarni bilib borish va o'zlashtirish uquvini shakllantirish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatadi

Ta'lim maqsadi davr bilan, ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liq. Ushbu dasturga fanlarning o'qitish metodikasi, o'ziga xosliklari, maxsus fanlarni o'qitish jarayoni, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari, maxsus fanlarni o'qitishdagi pedagogik jarayon, o'quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalari, mutaxassislik fanlarini o'qitishda tizimli yondashuv, maxsus fanlarni o'qitishda o'qituvchi shaxsi va uning metodik kompetentligi haqida bilimga ega bo'lishlari ilmiy asoslangan bo'limlar kiritilgan.

Ushbu fanning vazifasi magistrantlarni maxsus fanlarni o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish, metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash, pedagogik fanlarning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish; pedagogik faoliyatini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Fanning oquv dasturi bilan tanishganda uning mazkur sohalar mutaxassislari uchun tushunarli va bugungu kunda ta'lim sohasida hal qilinishi zarur bo'lgan muammolarni yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, fan dasturi Davlat ta'lim standarti talablariga mos bo'lib unda rejalashtirilgan bilimlarni magistr tomonidan o'zlashtirilishi oliy ta'lim jarayonidagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Fanning oquv dasturining yuqorida keltirib o'tilgan ijobiy tomonlarini inobatga olgan holda ma'qullayman va uni tasdiqlashga tavsiya etaman.

Sh.Z.Taylanova

imkonini tasdiqlayman

O'zbekiston - Finlandiya
pedagogika instituti "Maktabgacha
ta'lim pedagogikasi va
psixologiyasi" kafedrası
professor.



loyihalarni bilib borish va o'zlashtirish uquvini shakllantirish.

3-mavzu. Tadqiqotchi faoliyati va unga qo'yiladigan malakaviy talablar
Tadqiqotchi faoliyati. Tadqiqotchiga qo'yiladigan malakaviy talablar. Kasbiy malaka ma'lum faoliyatni ijro etish uchun zarur bo'lgan fazilatlar. Ilmiy maktab.

4-Mavzu. Samarali faoliyat modeli.

Zehn va ishchanlikni saqlash. Tadqiqot texnologiyasi. Tadqiqot samaradorligini ta'minlash. Ishchanlik nima, qanday namoyon bo'ladi.

5-mavzu. Ilmiy axborot bilan ishlash: mutolaa qilish, yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish.

Ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilish. Mutolaa turlari va qoidalari. Axborotlarni markirovkalash. Kitob, ilmiy jurnal, ilmiy maqolalar, tezislari to'plami bilan ishlashning protsessual tizimi. Kitobning tarkibiy tuzilishi.

6-mavzu. Axborotlarni yozma va og'zaki shaklda yetkazish

Axborotlarni yozma shaklda yetkazish. Axborotlarni og'zaki shaklda yetkazish. Ilmiy matnlarning funktsiyalari va turlari. Reja. Tezislari. Konspekt. Referat. Annotatsiya. Maqola. Esse. Ilmiy uslubdagi matnlarni yozish bo'yicha tavsiyalar.

7-mavzu. Ilmiy tadqiqot tushunchasi

Ilmiy bilish va tadqiqot tushunchalari. Ilmiy tadqiqot tushunchasi. Ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish. Ixtisoslashgan ilmiy bilish. Ilmiy tadqiqot turlari. Ilmiy tadqiqot strukturasi. Ilmiy bilish darajalari va shakllari. Muammo va uning ijodiy tomoni. Nazariyani tarkibi. Ilmiy gipotezaning rivoyatdan farqi.

8-mavzu. Ilmiy tadqiqot mavzularini asoslash metodologiyasi

Tadqiqot ob'yektini tanlash. Ilmiy tadqiqot mavzularini tanlash. Ilmiy tadqiqot mavzularini asoslash. Tadqiqotchilik faoliyatining protsessual tuzilmasi. Ilmiy yo'nalish va uning strukturasi. Ilmiy muammo, unga qo'yiladigan uslubiy va me'yoriy talablar. Ilmiy tadqiqot mavzusi. Mavzu samaradorligini baholash. Ilmiy tadqiqot ishlarini asosiy bosqichlari.

9-mavzu. Ilmiy tadqiqotda axborot izlash va qayta ishlash

Ilmiy axborot tushunchasi. Ilmiy tadqiqotda axborotlarni izlash. Ilmiy tadqiqotda axborotlarni tahlil qilish.

10-mavzu. Ilmiy tadqiqotda fakt tushunchasi.

Fakt tushunchasi. Tadqiqotda faktlarni qayta ishlash. Ilmiy adabiyot bilan ishlash. Ilmiy faktning sifat belgilari. Faktlarni qayta ishlash, talqin qilish. Fakt va nazariy umumlashma (xulosa).

11-mavzu. Tadqiqot metodi va metodologiyasi

Usul (metod) tushunchasi. Ilmiy tadqiqot va usul. Metodologiya tushunchasi. Tadqiqot usullari tasnifi. Metodologiya usul, uning mohiyati va funksiyalari, usullarning ijodiy xislatlari haqidagi ta'limot.

12-mavzu Ilmiy tadqiqot metodlarini tanlash. Ilmiy tadqiqot metodlarini tanlash. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Usulning ob'ektiv va sub'ektiv jihatlari.

13-mavzu. Eksperimental tadqiqotlar.

Eksperiment va uning turlari. Eksperimentni rejalashtirish va tashkil qilish. Eksperiment natijalarini tahlil qilish va baholash. Eksperimental tadqiqotlar olib borish.

14-mavzu. Ilmiy tadqiqotlarda modellashtirish

Ilmiy tadqiqotlarda modellashtirish. Umumilmiy eksperimentlar.

15-mavzu. Matematik eksperiment.

Matematik eksperiment. Moddiy eksperiment.

16-mavzu. Kompyuterli eksperiment.

Kompyuterli eksperiment. Xayoliy eksperiment.

17-mavzu. Magistrlik dissertatsiyasi: umumiy tushuncha.

Ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish. Magistrlik dissertatsiyasini mazmuni, tarkibiy qismlari va rasmiylashtirish qoidalari.

18-mavzu. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilmasi

Magistrlik dissertatsiyasi: Kirish, Asosiy qism, Xulosa. Magistrlik dissertatsiyasi ustidagi ishning protsessual tuzilmasi. Magistrant ilmiy ishining natijalari, ko'rsatkichlari va uni baholash mezonlari.

19-mavzu. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirish.

Dissertatsiyaning tuzilishi va asosiy mazmuni. Rasmiylashtirishga nisbatan asosiy talablar. Boblar va sarlavhalar nomlarini rasmiylashtirish. Titul varag'ini rasmiylashtirish.

20-mavzu. Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish.

Matndagi qaydlar, ko'chirmalar va o'zlashtirilgan parchalarni rasmiylashtirish. Ilovalarni rasmiylashtirish. Foydalanilgan manbalarni bayon qilish qoidalari. Dissertatsiyani himoya qilish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanining predmeti.
2. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanining maqsadi va vazifalari.


Ushbu o'quv dasturning yuqorida sanab o'tilgan ijobiy xususiyatlarini inobatga olib uni tasdiqlashga tavsiya etaman.

Samarqand davlat chet tillar instituti

magistratura bo'limi boshlig'i,

psixologiya fanlari

doktori (DSc), professor



Saidov Azamat Ismoilovich

Saidov A. NING IMZOSINI
TASDIQLAYMAN
Samarqand DCHTI KADRLARI

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining 70520202-Ekologiya mutaxassisligi magistratlari uchun "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanidan ishlab chiqilgan fanning o'quv dasturiga

TAQRIZ

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar Yangi O'zbekiston sharoitida jadal rivojlanmoqda. Oliy ta'lim tizimi oldiga yangi maqsad va vazifalar qo'yilmoqda. Barcha o'zgarishlarning maqsad va mohiyati markazida rivojlanayotgan talaba shaxsi – uning maqsadi va o'zini anglashi hamda o'zini tadqiq etishi, shaxs bo'lib yetishishi, ijodini namoyon etishi kabi masalalar turadi.

Ushbu fanni o'qitishdan maqsad -magistrantlarga tadqiqot olib borish malakasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilimlar berish, dolzarb ilmiy muammolarni mustaqil tahlil qilish, zamonaviy tadqiqot usullarini o'rganish, izlanish samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini rasmiylashtirish va joriy qilish masalalarini ko'rib chiqish, tadqiqot olib borish texnologiyasi, yangi bilimga erishish yo'llari va usullari, empirik va nazariy tadqiqot metodologiyasi, olingan natijalardan nazariy va amaliy yo'nalishlarda foydalanish haqida bilim berish, tadqiqotchilik ko'nikmasini takomillashtirishdan iborat.

Fan dasturi magistrant va yosh olimlarda nazariy va tajribaviy tadqiqot o'tkazish malakasini shakllantirish, ilmiy tadqiqotni tashkil qilish, uni amalga oshirish rejalari va bosqichlarini ishlab chiqishni o'rganish, ilmiy ijod qilish yo'llari va mexanizmlari haqida zamonaviy tasavvurlarni hosil qilish, ilmiy tadqiqot olib borish sharti bo'lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirish, fan va texnologiyada paydo bo'layotgan innovatsion g'oyalar va loyihalarni bilib borish va o'zlashtirish uquvini shakllantirish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatish kabi muammolarni o'rganadi.

Dasturda tadqiqotchi faoliyati va unga qo'yiladigan malakaviy talablar, ilmiy bilish, ilmiy tadqiqot va metod, buyuk allomalarimiz ijodiyotida tadqiqot metodologiyasi masalalari, ilmiy tadqiqot metodologiyasi: maqsadi, mazmuni va funksiyalari, ilmiy tadqiqot texnologiyasi, ilmiy tadqiqot: darajalari, strukturasi va shakllari, ilmiy muammo: mohiyati va xususiyatlari, ilmiy tadqiqotda axborot bilan ishlash, fanda metod va metodologiya masalalari, kompyuterli eksperiment, uning imkoniyatlari va samaradorligi haqidagi bilimlar qamrab olingan.

3. Qadimgi yunon faylasuflari ijodiyotida tadqiqot metodologiyasi masalalari
4. G'arbiy Evropa davlatlari allomalari ijodiyotida tadqiqot metodologiyasi masalalari
5. Buyuk allomalarimiz ijodiyotida tadqiqot metodologiyasi masalalari.
6. Tadqiqotchi faoliyati
7. Tadqiqotchiga qo'yiladigan malakaviy talablar
8. Ilmiy axborot bilan ishlash: mutolaa qilish, yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish.
9. Ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilish.
10. Axborotlarni yozma shaklda yetkazish.
11. Axborotlarni og'zaki shaklda yetkazish.
12. Ilmiy tadqiqot tushunchasi
13. Ilmiy tadqiqot mavzularini asoslash metodologiyasi
14. Ilmiy tadqiqotda axborot izlash va qayta ishlash.
15. Tadqiqot metodi va metodologiyasi.
16. Eksperimental tadqiqotlar.
17. Ilmiy tadqiqotda modellashirish.
18. Ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish
19. Ilmiy tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.
20. Magistrlik dissertatsiyasi ustidagi ishning protsessual tuzilmasi.
21. Magistrant ilmiy ishining natijalari, ko'rsatkichlari va uni baholash mezonlari.
22. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi
23. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy mazmuni.
24. Rasmiylashtirishga nisbatan asosiy talablar.
25. Dissertatsiyani himoya qilish.

Amaliy mashg'ulotlar zarur adabiyotlar, kompyuterlar bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III.II. Laboratoriya mashg'ulotlari o'quv rejada ushbu modulda nazarda tutilmagan.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fan tarixiga oid yondashuvlar.
2. Fan tarixida ijod muammosi. Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodiga oid qarashlar.
3. Tadqiqotchi faoliyati va unga qo'yiladigan malakaviy talablar.
4. Ilmiy bilish.
5. Ilmiy tadqiqot va metod.
6. Buyuk allomalarimiz ijodiyotida tadqiqot metodologiyasi masalalari.
7. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: maqsadi, mazmuni va funksiyalari.
8. Ilmiy tadqiqot texnologiyasi.

	<p>9. Ilmiy tadqiqot: darajalari, strukturasi va shakllari.</p> <p>10. Ilmiy muammo: mohiyati va xususiyatlari.</p> <p>11. Muammo(mavzu)ning ishlanganlik(o'rganilgan) darajasini aniqlash.</p> <p>12. Ilmiy tadqiqotda axborot bilan ishlash.</p> <p>13. Bilish faoliyatida ratsionallik va irratsionallik.</p> <p>14. Fanda metod va metodologiya masalalari.</p> <p>15. Kuzatish metodi.</p> <p>16. Eksperiment metodi.</p> <p>17. Kontent analiz va statistik ma'lumotlardan foydalanish.</p> <p>18. Kompyuterli eksperiment, uning imkoniyatlari va samaradorligi.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, axborotlarni saralashi, ilmiy ishlanmalar tayyorlashi, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.</p> <p>V. Fan bo'yicha o'quv rejada kurs ishi rejalashtirilmagan.</p>
3.	<p>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ilmiy tadqiqot olib borishning metodologik asoslari, ilmiy ijod qilishning zaruriy ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlari, qonuniyatlari va mexanizmlari, ilmiy tadqiqotning mantiqiy tuzilmasi, ilmiy yo'nalish va mavzu tanlash, ilmiy axborot, fakt va ma'lumotlar bilan ishlash haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi(bilim)</i>; • hozirgi zamon postnklassik fan va texnologiya yutuqlari, eng yangi fan yo'nalishlari metodologiyasini, ilmiy ish va dissertatsiyani rasmiylashtirish va joriy qilish qoida va talablarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi(ko'nikma)</i>; • tadqiqot samaradorligini oshirish, tadqiqot jarayonini tavsiflash va ta'riflash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini o'rganish, ilmiy matn yozish o'quvini shakllantirishi, olingan natijalarni amaliyotga tatbiq qilish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak(malaka)</i>;
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p>

6.	<p>1. Radjabov A. Ilmiy tadqiqot asoslari. Tafakkur bo'stoni. Toshkent 2012.</p> <p>2. Umurov H., Umurova G. Ilmiy tadqiqot asoslari. SamDU. Samarqand-2020</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>3. Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. "Innovatsiya-Ziyo" Toshkent. 2020.</p> <p>4. Xodiev B.Y., Bekmurodov A.Sh., Boltaev M.R. va boshqalar. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlik asoslari-T.:Ekonomika 2010. 138 bet</p> <p>5. Qo'shoqov Sh.S. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. S.:SamDU nashri. 172 bet.2015.</p> <p>6. Raxmatullaev Sh. Ilmiy tadqiqot asoslari. -Toshkent, 2002.</p> <p>7. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. T.: Iqtisod-moliya, 2007.</p> <p>8. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi (o'quv qo'llanma). Tuzuvchilar: Burxonov A. va boshqalar. T.: TDYUI, 2006.</p> <p>9. Choriyev A. Choriyev I. Pedagogikaning metodologik asosi va ilmiy tadqiqot metodlari. T.: Nishon Noshir nashriyoti.2016.</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>11. www.gov.uz -O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>12. www.lex.uz -O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi</p> <p>13. www.Ziyonet.uz.</p> <p>14. www.veterinariya.medsinasi.uz</p> <p>15. www.sea@mail.net21.ru</p> <p>16. www.veterinarv@actavis.ru</p>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12"-sonli bayoni bilan maqullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>N.N.Narziyeva – SamDVMChBU, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. A.I.Saidov – SamDChTI, Magistratura bo'limi boshlig'i, p.f.d., professor</p> <p>2. Sh.Z.Taylanova – O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori, p.f.d.</p>